




NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2025- YIL YANVAR (DASTLABKI MA'LUMOT)



Namangan viloyatining sanoat ishlab

chiqarishi asosiy ko'rsatgichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2025- yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 2157,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 110,8 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


(2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3 958 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 3 897 tasi kichik biznes subyektlaridir. Yangi tashkil qilingan korxonalar soni 51 tani tashkil etgan va u kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yil yanvar oyida viloyatimizda jami sanoat ishlab chiqarishi 2157,0 mlrd soʻmni, shundan 3,7 mlrd soʻm togʻ-kon sanoatiga, 1 738,1 mlrd soʻm ishlab chiqarish sanoatiga, 396,2 mlrd soʻm elektr, gaz bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sanoatiga, 19,1 mlrd soʻm suv bilan taʼminlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish sanoatiga toʻgʻri keldi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, 1 738,1 mlrd soʻmni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,6 % ni tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 52,3 % ga o'sishi, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati – 11,9 % ga o'sishi, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 6,9 % ga o'sishi, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining – 20,7 % ga kamfyishi kuzatildi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2025- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,7 mlrd so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,2 % ga to'g'ri keldi.




Namangan viloyatining ishlab chiqaradigan sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1738,1 mlrd so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,6 % ini tashkil etdi.



2025- yil yanvar oyini o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 % ni (2024- yilning yanvar oyida – 2,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 6,2 % (2024- yilning yanvar oyida – 5,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 11,5 % (2024- yilning yanvar oyida – 14,1 %), quyi texnologiyali – 80,6 % (2024- yilning yanvar oyida – 78,2 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalardan biri to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 36,0 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 100,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 20,4 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 105,7 %), kiyim ishlab chiqarish sohasining ulushi – 15,1 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 123,5 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,3 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,2 %), elektr uskunalari ishlab chiqarishning ulushi – 3,3 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 121,6 %) ni tashkil etdi.


** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

*(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *)*



** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 3 320,7 tonna (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 26,0 % ga kamaygan), paxta chigiti 3 747,9 tonna (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 78,2 % ga oshgan), paxtadan yigirilgan ip 4 085,0 tonna (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 5,1 % ga oshgan), paxta linti mahsulotlari 176,2 tonna (43,1 % ga oshgan), o'simlik yog'li 884,3 tonna (35,1 % ga kamaygan), 899,0 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (63,8 % ga kamaygan) ishlab chiqarildi..


| Sanoat mahsulotlari | 2025- yil yanvar | 2024- yil yanvar | Farqi +/- |
|--------------------------------------|------------------|------------------|-----------|
| Paxta tolasi, tonna | 3 320,7 | 4 486,7 | -1 166,1 |
| Chigit, tonna | 3 747,9 | 2 103,5 | 1 644,4 |
| Paxta linti, tonna | 176,2 | 123,1 | 53,1 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna | 889,3 | 2 485,0 | -1 586,9 |
| Paxta yigirilgan ip tonna | 4 085,5 | 3 888,5 | 196,5 |

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 105,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,4 % va ishlab chiqarish hajmi 354,9 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 71,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 33,2 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 29,0 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,7 % ni tashkil etgan, ishlab chiqarish hajmi 626,0 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 23,5 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 262,6 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.

2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 112,0 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmi 28,6 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo'lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 2,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 121,6 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 57,4 mlrd so'm ekani kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya- sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

2025- yil yanvar oyida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 396,2 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,4 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,9 % ga oshganligi kuzatildi.


| Sanoat mahsulotlari | 2025-yil yanvar | 2024-yil yanvar | Farqi +/- |
|--------------------------------|-----------------|-----------------|-----------|
| Elektrenergiya, mln.kVt.s | 393,6 | 536,7 | - 143,1 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 7,5 | 13,1 | -5,6 |

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan 2025- yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,1 mlrd so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 0,5 % ga oshganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 29,5 % ga kamayganligi kuzatildi.

| Sanoat mahsulotlari | 2025-yil yanvar | 2024-yil yanvar | Farqi +/- |
|---|-----------------|-----------------|--------------|
| Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm | 10 114 957,0 | 10 061 196,0 | 53 761,0 |
| Oqava suvlarning shلامي - ming.so'm | 864 904,0 | 792 500,0 | 72 404,0 |
| Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm | 23 525 885,0 | 5 001 088,0 | -1 475 203,0 |

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 869,5 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,3 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 41,6 % ni tashkil etgan.



Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat boʻyicha 2025- yil yanvar oyida 696,0 ming soʻm (2024- yil yanvar oyida 496,5 ming soʻm), oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 108,4 %ni koʻrsatmoqda.

